



# International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

*International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.*

## **Korxonalar Faoliyatini Boshqarishda Samaradorlikni Oshirish Yo‘llari**

**D. Bobobekov**

Samarqand davlat arxitektura – qurilish universiteti “Biznesni boshqarish” kafedrasida magistranti

**O. I. Yusupova**

Samarqand davlat arxitektura – qurilish universiteti “Biznesni boshqarish” ta’lim yo’nalishi 2-kurs talabasi

### **Annotatsiya**

Maqolada korxonalar faoliyatini boshqarishda samaradorlikga erishish, qurilish materiallarining raqobatbardoshligini oshirish uchun yaxshi rejalashtirish, tashkil etish va mehnat samaradorligini oshirishga bo‘lgan talablarning nazariy qarashlar o‘rganilgan. Shuningdek, korxonalar samaradorligini oshirish uchun boshqarish tizimining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining amal qilishi hamda boshqarish uchun zarur bulgan samaradorlik bosqichlari o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** qurilishni rejalashtirish, qurilish materiallarining samaradorligini oshirish, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi, raqobatbardoshlik, qurilish sanoatini tashkil etish.

Bugungi kunda ishlab chiqarish korxonalari faoliyatini boshqarishda mehnat jarayonlarini to‘g‘ri tashkil etish, rejalashtirish, muvofiqlashtirish va mehnat samaradorligini oshirishga bulgan talab tobora ortib bormoqda. Bu korxonada xodimlarining majburiyatlari va vakolatlarining kengayishi hamda o‘zlarining iqtisodiy ahvoli uchun javobgarliklari darajasining oshganligi bilan bog‘liqdir. Zamonaviy boshqarishning sifati korxonalar samaradorligini belgilab beradi. Shu bois korxonalar eng zamonaviy texnika va texnologiyalarni jalb etish bugungi kundagi ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Xar bir korxonada zamonaviy texnika va texnologiyalarni jalb etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, har bir korxonada faoliyatining eng asosiy vazifasi hisoblanadi. Shunday ekan korxonalar boshqarishda samaradorlikni obyektiv va subyektiv hamda har tomonlama o‘rganish davomida, unga ta’sir etuvuvchi omillarni aniqlash va tizimlashtirish muammosi bo‘yicha ilmiy-asoslangan taklif va tavsiyalar berish bugungi kunning dolzarb bo‘lgan asosiy masalalaridan biri hisoblanadi degan fikrdamiz.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan ushbu dolzarb masalaning tashkiliy jihatlaridan hal qilish uchun 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ham «tarkibiy o‘zgarishlarni chuqurlashtirish, korxonalar raqobatbardoshligini oshirish hamda eksport salohiyatini yuksaltirish» kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarning samarali ijrosini ishlab chiqish natijasida korxonalarining

innovation faoliyatini boshqarish yuksaltiradi, zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini takomillashtiradi va tashkilotlarning mehnat unumdorligi darajasi yanada oshadi deb hisoblaymiz.

Shu munosabat bilan, bunday yuksak va murakkab maqsadga erishish korxonalar faoliyatini boshqarishda samaradorlikni oshirish uchun kompleks yondashuvni amalga oshirilishini talab qiladi. Demak biz birinchi o'rinda samaradorlik tushunchasi, va o'ning korxonalar faoliyatini boshqarishda samaradorlikni oshirish yo'llari to'g'risida ma'lumotlarni olish zaro'r bo'ladi.

Adabiyotlarda "samaradorlik" tushunchasi, garchi daromad olish, harajatlarni kamaytirish, mehnat samaradorligining o'sishi, fond qaytimi, rentabellik va hokazolar samaradorlik tabiatiga mos kelib, bozor iqtisodiyoti talablariga zid kelmasa-da, baho, foyda, daromad, harajat kabi tushunchalarga qaraganda kam qo'llanilmoqda. Samarali ishlash degani o'z mohiyatiga ko'ra, mo'ljallangan (rejalashtirilgan) foydani olish, noishlab chiqarish harajatlari va yo'qotishlarni kamaytirish, ishlab chiqarish quvvatlari va ishchi kuchidan yaxshiroq foydalanish, mehnat samaradorligini oshirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatini yaxshilashni anglatadi.

"Samara", "samaradorlik", "ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik" kabi tushunchalarning orasidagi farqni anglab olish zarur. Samara ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat), foyda va daromad hajmini oshirish, mahsulot tannarxini kamaytirish, sifatsiz mahsulot ishlab chiqarishni kamaytirish yoki umuman, yo'q qilish bilan bog'liq bo'lgan korxonalar faoliyatining ijobiy natijalaridir. Bu yutuqlar natural shaklda ishlab chiqarish samarasini, pul shaklida esa iqtisodiy samarani tavsiflaydi. Samaradorlik, avvalo, korxonalar faoliyatining sifat jihatlarini tavsiflovchi tushunchadir. U "samara" toifasidan kelib chiqadi hamda unga qaraganda murakkab va kompleks tavsifga ega.

**Iqtisodiy samaradorlik** samaradorlikka qaraganda bir muncha tor ma'noni anglatadi. U qabul qilinayotgan qarorlarning xo'jalik yuritishda maqsadga muvofiqligini tavsiflaydi hamda barcha hollarda samaraning unga erishish uchun ketgan harajatlarni (ishlab chiqarish resurslari)ga nisbati sifatida aniqlanadi. Harajatlarni qanchalik kam bo'lsa (mahsulot sifatiga ta'sir qilmagan holda), samara shunchalik ortadi, demak, iqtisodiy samaradorlik ham ortadi.

**Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik** ishlab chiqarish samaradorligining mehnat sharoitlarini, uning ijodkorlik mazmunini boyitish, aqliy va jismoniy mehnat o'rtasidagi farqni yo'qotishni inobatga olgan holda tavsiflaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik bir vaqtning o'zida, ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytirish, korxonaning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi, shaxsning har tomonlama rivojlanishi va uning barcha qobiliyatlaridan foydalanishning sabab va natijasi hisoblanadi. Bevosita ijtimoiy samara, xodimlarning bilim va malakasi, tajriba va madaniyatining o'sishi, aholi sog'lig'ining yaxshilanishi va umr ko'rishining uzayishida aks ettiriladi.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xo'jalik yuritishning bozor tizimi hamda har qanday davrning muhim talabidir. Samaradorlik istalgan korxonani boshqarishning iqtisodiy barqarorligi va faoliyat yuritish qobiliyatini aks ettiradi. Har qanday ishda, jumladan, korxonalarini boshqarish faoliyatida samaradorlikning, ijobiy natijalarning mavjud bo'lmashligini, obrazli qilib aytganda, ovoragarchilik, vaqt, kuch va resurslarni yo'qotish bilan izohlash mumkin.

Ushbu maqolada bizlar korxonalar faoliyatini boshqarishda samaradorlikni oshirish yo'llari fan-texnika taraqqiyoti natijasida samaradorlikni oshirishda muhim omil bo'lib kelgan. Olib borilgan nazariy izlanishlar va viloyat korxonalaridagi amaliy kuzatuvlar bunday munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha quyidagi takliflarning ishlab chiqilishiga asos bo'lgan:

- ishlab chiqarish va mehnatni mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish hamda kompleks ravishdagi mexanizatsiyalashtirish;
- asosiy texnologik jarayonlarni robotlashtirish;

- progressiv, mehnat hamda resurslarni tejashga yo'naltirilgan texnologik jarayonlarni amaliyotga kiritish va ulardan keng foydalanish;
- xomashyo va materiallar (mehnat predmetlari) zamonaviy turlarini yaratish va ulardan foydalanish;
- ishlab chiqarishni tashkil qilish, rejalashtirish va boshqarish jarayonlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan, hisoblash texnikasidan foydalanish;
- ishlab chiqarish va mehnatni ilmiy tashkil qilish.

Ushbu takliflarning korxonalar va tashkilotlarda joriy etilishi ishlab chiqarish faoliyatini boshqarishda mehnat unumdorligini oshirishdi va samaradorlikni oshirish yo'llarini yaratishga salmoqli xissa ko'shadi deb hisoblaymiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni. O'zR Qonunchilik hujjatlari to'plami. 2017 yil. 6-son, 70-modda.
2. R.M.Egamov, B.K.Abdusamatov, Qurilish industuriyasi korxonalarini boshqarishda innovasion tadbirlarga ta'sir etuvchi omillar va ularning tasniflanishi// Andijon, 2021 yil, 15 may, 80-83 betlar.
3. I. Xotamov, Sh. Mustafakulov, M. Isakov, A. Abduvaliyev., Korxonalar iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish. O'quv qo'llanma. Toshkent-2019, 163-b.